

## **OLIY TA'LIM DARGOHLARIDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHITNI SHAKILLANTIRISH VA TIZIMLI TASHKIL ETISH VOSITALARI.**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslar va huquq ta'lim yo'nalishi*

*4-bosqich talabasi Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori*

**Primov Sunnatillo Elmurod o'g'li**

**“ Najot- ta'limda, najot-tarbiyada, najota-bilimda “**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida qolaversa, barcha ta'lim va tarbiya muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakillantirish orqali kuchli ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan ravnaq topayotgan Yangi O'zbekiston haqida qisqacha fikr yuritildi. Shuningdek ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakillanishida turli xil tashkilotlarning o'zaro hamkorligi muhimligi va ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha qisqacha takliflarga ham to'xtalib o'tildi. Qolaversa yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy sohani rivojlantirish bo'yicha keying yillarda olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida ham fikr yuritildi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiylashuv, ma'naviyat, globallashuv, islohat, ta'lim dargohlari, ijtimoiy-ma'naviy muhit, milliy g'oya, jamiyat, yoshlar, tarbiya.

Bugungi kunda tobora globallashib, zamonaviylashib, borayotgan davrda axborot-texnologiyalari rivoj topib, insonlar ongi va qalbini turli xil zamonaviy ko'rinishdagi buzg'unchilik g'oyalari egallayotgan davrda, qadriyatlar va an'analarga nisbatan juda e'tiborsizlik va eskilik sarqiti sifatida turli xil qarashlar yuzaga chiqmoqda. Mana shunday davrda barcha tashkilotlarda, shu qatorda oliy ta'lim dargohlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakillantirish dolzarb muammolar sifatida tez-tez ko'zga tashlanib qolmoqda. Ijtimoiy-ma'naviy muhit bir qarashda unchalik ham

muhim emasdek ko'rsada,aslida bugun asrlar davomida shakllanib kelayotgan qadriyatlar va an'analarimizni,qolaversa umuman xalq sifatida bizni namoyon qiladigan o'zbek xalqining ming yillar davomida shakllanib kelayotgan tarixiga bolta urish desak adashmagan bo'lamiz.Shunday ekan mana shunday holat sodir bo'lmaslik uchun ijtimoiy-ma'naviy muhitni to'laqonli oliy ta'lim dargohida ta'lim va tarbiya olib kelayotgan bo'lajak kadrlarimiz qalbi va ongiga singdirish orqali bu holatni oldini olishimiz mumkin. Bugun mamlakatimizda har tomonlama ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish,aholi,ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati,ong-utafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash,vatanparvarlik,xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash,ularni olib borayotgan islohatlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish,shuningdek ta'lim muassasalari hamda barcha oliy ta'lim va davlat tashkilotlarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni izchil amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish to'g'risidagi qarori qabul qilinishi" <sup>1</sup>ham aynan ijtimoiy va ma'naviy muhitni amalda joriy etish orqali Yangi O'zbekistonning bir poydevori uchun xizmat qilishi ko'p bora ta'kidlanmoqda.Aynan oliy ta'lim dargohlarida ta'lim olayotganalarning deyarli katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu sababli ham asosiy urg'u oliy ta'lim mussasalariga qaratilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-sessiyasida so'zga chiqib,o'z nutqlarida shunday degan edilar. "Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish,zo'ravonlik g'oyasi "virus" tarqalishining oldini olishdir.Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash,uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz deya

---

<sup>1</sup> Lex.uz.sayti

ta'kidlaydilar <sup>2</sup> Ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakillantirish uchun avvalombor inson omilli muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-ma'naviy muhit inson tomonidan yaratilgan shaharlar va boshqa aholi punktlari, tomonidan jismoniy jihatdan, ularning bir-birlari bilan bog'liqligi va har biriga umuman ta'sir ko'rsatadigan turli xil madaniy, ma'rifiy, siyosiy va ijtimoiy tuzilmalar tomonidan tashkil etiladi. Umumiy ma'noda bu atama jamiyat tug'ilishi va o'sishi kabi, ijtimoiy kontekst, ijtimoiy muhit tushunchalariga teng bo'lishi mumkin. Shaxs o'sib-ulg'ayadigan jamiyat ma'lum madaniy qadriyatlarga ega bo'lgan minglab yoki millionlab shaxslardan iborat hisoblanadi. Ijtimoiy-ma'naviy muhit bu inson yashashi uchun yaratilgan muhitlardan biri bo'lib, bir necha bosqichlarda o'z aksini topgan. Inson ijtimoiy-ma'naviy muhit yaratish uchun avvalo, unga yetarli jismoniy resurslar kerak. Shundagina inson ijtimoiy-ma'naviy muhitning oliy darajasiga ko'tarila oladi. Globalashuv natijasida o'sib kelayotgan yoshlar orasida juda ko'plab muammolar ulardan biri ijtimoiy-ma'naviy muhitni to'g'ri anglab yetmaslik, aslida bu jarayon faqat yoshlar tomonidan emas, balki butun jamiyat a'zolari tomonidan yaratiladigan va unga hamma birdek amal qiladigan muhit hisoblanadi. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakillantiruvchi asosiy vositalar quydagilar sanaladi.

Birinchidan, oila va oiladagi ma'naviy tarbiya;

Ikkinchidan, mahalla hamda mahalladagi ijtimoiy-ma'naviy maskanlar;

Uchinchidan, ta'lim muassasalari, bog'cha, maktab, akademik litsey va kollejlari;

To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalari va oliy ta'limdan keyingi ta'lim maskanlari;

Beshinchidan, mahalliy davlat organlar hamda nodavlat tashkilotlar.

Ushbu tashkilotlar orasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit chambarchas bog'liqlikda olib borilsa albatta ko'zlagan natija erisha olamiz. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni tizimli tashkil etish borasida keyingi yillarda mamlakatimizda ulkan ishlar, keng chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Birgina misol tariqasida 2020 –yil 18-fevralda PQ-5938-sonli “ Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada

---

<sup>2</sup> Mirziyoyev, Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. bet

qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon qabul qilindi."<sup>3</sup>Ushbu qaror asosida keng islohatlar amalga oshirilib,yirik o'zgarishlar bo'ldi.Tizimli tashkil etishda " mahalla > sektor > hokimiyat "hamkorligini tizimli faol tarzda yo'lga qo'yilishi orqali ijtimoiy-ma'naviy muhitni ham samarali yo'lga qo'yishda asosiy ko'priklar vazifasini bajaradi. Qarorda asosiy vazifa sifatida jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik,totuvlik, va osoyishtalikni ta'minlashning w-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish asosiy kun tartibi qo'yildi.Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan aynan ijtimoiy-ma'naviy muhit masalasiga alohida e'tibor bergan holda "Mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlarimizda ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish,oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari faoliyat yo'lga qo'yilgan.Milliy g'oya targ'iboti hamda ijtimoiy-ma'naviy ishlar yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental,amaliy va innovatsion loyihalarni shakillantirish, shuningdek,Ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakillantirish borasidagi chora-tadbirlarni to'laqonli amaliyotga joriy etishni davr taqozosi talab etmoqda deya ta'kidlaydilar.<sup>4</sup>

Har qanday davrda ham ijtimoiy-ma'naviy muhit inson kamoloti uchun, ertangi kuni uchun muhim hisoblanadi.Ijtimoiy-ma'naviy muhit o'zida ulkan tarixni va kelajak uchun zarur bo'lgan qadriyatlarni,insonlar orasida bo'lgan o'zaro ishonchni, hamkorlikni mustahkamlaydigan kuch hisoblanadi.Biz har doim ijtimoiy-ma'naviy muhit bilan bog'liq bir qancha yuksak pog'onalarni bosib o'tib kelayotagan avlod vakillari hisoblanamiz.O'zbek xalq butun dunyoga o'zining bag'rikenligi,fidoyiligi, menatsevarligi,vatanparvarligi bilan nom taradgan xalq hisoblanadi.Bugun dunyoda xalqlarning o'zni iqtisodiy omil bilan emas,balki xalqning yuksak ma'naviyati, ijtimoiy-ma'naviy muhitning ravnaq topganligi bilan belgilanayotganligini guvohi bo'layapmiz.Biz qachonki kuchli iqtisodiyot bilan kuchli ma'naviyatni birlashtira olsak

---

<sup>3</sup> Lex.uz.sayti.

<sup>4</sup> Sh.Mirziyoyev.M.Yangi O'zbekiston strategiyasi.Toshkent-2021.58 bet.

o'shanda kuchli ijtimoiy-ma'naviy muhitni bimalol samarasi deb ko'krak kerib maqtana olamiz va biz xohlayotgan jamiyat ham amalda o'z aksini topgan hisoblanadi deb o'ylayman. Yangi O'zbekiston-kuchli iqtisodiyot, kuchli ma'naviyat demakdir. <sup>5</sup>

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-2017. 488 bet
2. Sh. Mirziyoyev. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent-2021. 58 bet
3. M. Quronov. Milliy tarbiya va yoshlar. Toshkent-2016. 31 bet.
4. [www.Lex.uz.sayti](http://www.Lex.uz.sayti).
5. [www.ziyonet.uz.sayti](http://www.ziyonet.uz.sayti)

---

<sup>5</sup> M. Quronov. Milliy tarbiya va yoshlar. Toshkent-2016. 31 bet.